

KITOBXONLIK BUYUK KELAJAK KAFOLATIDIR

Axmedova Zaxraxon Xamzayevna

*Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*



"Kitob mutolaasiga havas avvalo, oiladan boshlanishi, ota-onalar farzandlarida kitob o'qishga mehr uyg'otishi uchun o'zlari kitobxon bo'lishlari lozim."

✍ Shavkat Mirziyoyev

Annotasiya: Mamlakatimizda olib borilayotgan kitobxonlikni rivojlantirish yo'llari, kitob o'qish madaniyatini shakllantirishda oilaning o'rni.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, kitobxonlik madaniyati, kitob o'qishni qiziqtirish yo'llari.

Аннотация: Пути развития чтения в нашей стране, роль семьи в формировании культуры чтения.

Ключевые слова: чтение, культура чтения, способы сделать чтение интересным.

Annotation: Ways to develop reading in our country, the role of family in the formation of a culture of reading.

Keywords: reading, reading culture, ways to make reading interesting.

Kitob – umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo'lguvchi sodiq do'st. Insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitobdek qudratga ega vosita topilmas. Shu bois azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilmu odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan.

Prezidentimizning 2017 yil 13 sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori hamda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus ijrosini ta'minlash maqsadida, maktabimizda o'tkazib kelinayotgan "Ma'naviyat va ma'rifat" dars soatiga qo'shimcha ravishda "Kitobxonlik daqiqasi" tizimi joriy etildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yosh kadrlarning bilim saviyasi va malakasini oshirish, fuqarolar bilan xushmuomala bo'lishlarini ta'minlash, xodimlarning ongu tafakkuri va

dunyoqarashini yuksaltirish, ona Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini shakllantirishdir.



Zero, har bir davlatning kuch-qudrati bilimli, zakovatli, ertangi kuniga ishona oladigan yoshlaridir. Qarordan ko'zlangan asosiy maqsad, yoshlar orasida kitobxonlikni keng targ'ib etish, yosh avlodni kitob o'qishga, xususan, badiiy adabiyotlarni o'qishga o'rgatish, asosiysi, bilimli va baxtli qilishdan iborat.

Kitobxonlarni mustaqil o'quv ehtiyoji va qobiliyatini shakllantirish – barchaning e'tiborini jalb etadigan muammolardan biri bo'lib, ularni hal etishning ahamiyati barcha uchun shubhasizdir, yechish yo'llarini esa ixtiyoriy savodli inson o'z tajribasidan kelib chiqib taklif etishi mumkindir. Ammo bularning barchasi bunday holatlarda bo'lgani kabi tadqiqotchining qiyinchiliklarini nafaqat yengillashtirmaydi, balki qiyinchiliklarni yanada og'irlashtiradi ham: muammo odatiyga aylanadi, odatiy oson bo'lib tuyuladi, ammo hal etilmaganligicha qoladi.

Juda ko'p kitob o'qishning 4 usuli

Kitob o'qish — muvaffaqiyat kaliti, stressdan qutqaruvchi va xotirani yaxshilovchi eng yaxshi vosita hisoblanishini bilsangiz kerak. Shunday bo'lsa-da, baribir kitob o'qishga hech vaqt topa olmaysiz. Quyidagi maslahatlarimiz bu borada sizga yordam beradi deb umid qilamiz.

① Agar kitob yoqmasa, o'qimang.

□ Siz ham qiyinchiliklar oldida bo'yin egadigan odam bolib ko'rinishni xohlamaysizmi? Shuning uchun yoqmagan kitobni o'qishga o'zingizni majbur qilaysizmi? Agar shunday bo'lsa, siz nohaqsiz. Kitob sizga yogmagan bo'lsa, o'qimang va buning uchun o'zingizni ayblashni bas qiling.

② Har bir bo'sh daqiqadan foydalaning.

□ Kun davomida o'qishga sarflaydigan bo'sh daqiqalaringiz ko'p bo'ladi. Masalan, navbatga turganingizda yoki tirbandlik vaqtida.

③ Rejalaringiz haqida gapirmang.

Tadqiqotchilar qandaydir katta maqsadlar haqida oldindan gapirish kamdan-kam hollarda muvaffaqiyatga olib keladi deb hisoblaydilar. Shuning uchun agar siz ko'proq kitob o'qimoqchi bo'lsangiz, buni oldingizga maqsad qilib qo'ying, lekin bu haqda boshqalarga aytmang.

4 Qog'oz kitoblarni o'qing.

Qog'oz kitoblarni o'qish chalg'imaslikka va iroda kuchini bekorga sarflamaslikka yordam beradi. Elektron qurilmalarda kitob o'qishda biz ko'pincha internetga kiramiz va o'qishni tashlashga majbur bo'lamiz. Qog'oz kitoblarni esa qo'lda ushlab o'zi ham yoqimli

Kitob o'qishning 10 foydasi

? Nima uchun har kuni kitob o'qish kerak?

- 1. Qimmatli bilim olish;
- 2. Miyangizni mashq qildirish;
- 3. Sizning dunyo qarashingizni kengaytirish;
- 4. Xotirangizni yaxshilash;
- 5. O'yin-kulgudan rohatlanish;
- 6. Aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- 7. Aloqa ko'nikmalarini shakllantirish;
- 8. Stressni kamaytirish;
- 9. Ruhiy salomatlikni yaxshilash;
- 10. Uzoq va mazmunli yashash.

Kitob o'qishning biz bilgan va bilmagan 5 ta foydasi

1 O'qish sizni zukkolikka yetaklaydi.

Qanchalik ko'p kitob o'qigani sari insonning zukkoligi va teran fikrlash qobiliyati shunchalik oshib boradi. Shu bilan birga, inson turli mavzularda qanchalik ko'p kitob o'qisa, o'z bilimini oshirishi bilan bir qatorda, o'zaro muloqot qilish san'atini ham yaxshi egallaydi.

2 O'qish miya faoliyatini mustahkamlaydi.

Inson odatda o'qigan kitobi to'g'risida o'ylashi uchun vaqti ko'p bo'ladi. Kitob o'qigan insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo'ladi va kitob o'qish miyadagi asab tolalarini mustahkamlaydi.

3 O'qish til mahoratimizni yaxshilaydi.

Kitob o'qish nafaqat so'z boyligini balki umumiy savodxonlikni ham oshiradi. Qaysi tilda o'qishdan qat'iy nazar, mutolaa orqali gapning konteksti qay tarzda yasalishini o'rganish mumkin bo'ladi.

4 O'qish stressni kamaytiradi.



□ Inson kitob mutolaa qilar ekan, o'sha paytda uni hech qanday topshiriq yoki xavotir o'ylantirmas ekan. Kitob mutolaa qilganda tanamiz umuman birorta maxsus harakatni amalga oshirmaydi va dam oladi. Nafas olish sekinlashadi va tinchlanamiz.

5 □ O'qish bizning so'z boyligimizni oshirishga xizmat qiladi.

□ Tadqiqotlarga qaraganda, kitob mutolaasi bilan shug'ullanuvchilarning so'z boyligi boshqa insonlarga nisbatan yuqori bo'lishi isbotlangan. Qisqa qilib aytganda, qancha ko'p o'qisangiz shuncha ko'p so'z boyligiga ega bo'lasiz.

Yuqorida ta'kkidlaganimizdek, bir qator tavsiyalar, pedagogik va psixologik jarayonlarda kechadi, buni har bir ota-ona kitob tanlashda e'tiborga olishi va ahamiyat berishi talab qilinadi. Bola yoshi ulg'aygan sari uning dunyoqarashi, o'qigan kitoblari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanayotgan innovatsiyalari ta'sirida kengayib boradi. Kitob o'qishga qiziqtirishda ota-ona eng dastlabki fundament bo'lib, bolaga maktabgacha bo'lgan davrda, bolaning qiziqishlariga qarab kitobni o'qib berib unga mehr uyg'otsa, [kitobning nima ekanligini](#), uning sir-sinoatlari haqida ma'lumot bersa, bolaning kitobga qiziqishi kengayib kitob o'qishga ishtiyoqi shakllanib boradi. O'quvchining qiziqishini muntazam ravishda nazorat olib unga kitob o'qishga imkon yaratib berish, uni qo'llab quvvatlash orqali o'quvchida kitob o'qish ishtiyoqi yanada kuchayib, kitobxon o'quvchiga aylanib borishi shubhasiz. Kitobxonlik bilan muntazam shug'ullanib borish o'quvchida boshqa predmetlarni ham o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xullas, hozirgi zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanayotgan, bu davrida bola ongni qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash va rivojlantirish uchun albatta ularda kitobga bo'lgan mehrni yanada kuchaytirishimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: «G'afur G'ulom», 2017. – 92 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida. Xalq so'zi, 2017 yil 14 sentyabr. – № 184.
3. www.ziyonet.uz.